

“Yangi O‘zbekiston” universitetiga talabalikka tavsiya etilgan talabgor uchun
№ F-1175 -sonli
OFERTA

Sana: 2024-yil 8-aprel

Toshkent shahri

Ta'lim yo'nalishi (dastur) nomi	Kiber xavfsizlik
O'quv yili	2024/2025 o'quv yili (1-kurs)
O'qish shakli	Kunduzgi
Taqdim etilayotgan davlat granti miqdori	38 000 000 so'm
Kafolat to'lovi miqdori	3 000 000 so'm
Dasturning umumiy davomiyligi	4 yil

Hurmatli ANVAROV SALIMBEK JUMANAZAR O'G'LI,

SAT xalqaro imtihonining matematika bo'limidan olgan natijangizga ko'ra, ko'rsatkichingiz 100 foizni tashkil etganligi bois, Siz “Yangi O‘zbekiston” universitetining Kiber xavfsizlik ta'lim yo'nalishiga talabalikka tavsiya etildingiz va 1 yillik 38 000 000 so'mlik davlat granti talabgori hisoblanasiz.

O'qishga qabul qilinishingizni rasmiylashtirish hamda Universitetda o'qish joyini band qilish uchun mazkur oferta shartlari asosida **3 ta amalni bajarishingiz** talab etiladi.

1-amal. 10 (o'n) ish kuni mobaynida 3 000 000 (uch million) so'm miqdorida kafolat to'lovini to'lash.

Kafolat to'lovi belgilangan muddatda amalga oshirilmasa, talabgor talabalikka tavsiya etilgan talabgorlar ro'yxatidan chiqarilishi mumkin. Bunda, keyingi o'rindagi talabgor ushbu talabgor o'rniga ko'tariladi.

Kafolat to'lovi o'qishni boshlaganingizda, o'quv yili boshlanganidan so'ng 1 (bir) oy muddatda qaytarib beriladi.

Shuningdek, kafolat to'lovi (to'liq miqdorda) amalga oshirilganidan so'ng 3 (uch) ish kuniga qadar o'qishni rad etsangiz, kafolat to'lovini qaytarib olish huquqiga egasiz.

Yuqorida qayd etilgan hollardan tashqari qolgan barcha holatlarda to'langan kafolat to'lovi qaytarilmaydi.

2-amal. Quyida keltirilgan hujjatlarni **2024-yil 26-avgustga** qadar shaxsiy kabinetga yuklash yoki "admission@newuu.uz" elektron pochtaga yuborish:

- 11 yillik umumiy o'rta yoki o'rta maxsus, professional ta'limni tamomlaganligi to'g'risidagi rasmiy hujjatning elektron nusxasi;

- ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikatning elektron nusxasi.

3-amal. **2024-yil 26-avgustga** qadar "SAT" sertifikatning haqqoniyligini tasdiqlash lozim. Buning uchun "College Board"dagi shaxsiy kabinet orqali "SAT" sertifikatni Universitetga yuborish.

Bu bo'yicha video qo'llanmani ushbu havola orqali topish mumkin:
<https://youtu.be/YVDR1WBRpyo>.

Taqdim etilgan ma'lumotlar soxta yoki xatoligi aniqlansa, ushbu oferta o'z kuchini yo'qotadi va natija bekor qilinadi.

Hurmat bilan,
B. Axmedov
O'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektor,
Qabul komissiyasi raisi



Universitetning bank rekvizitlari

Tashkilot nomi: “Yangi O‘zbekiston” universiteti

Manzil: Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Movorounnahr ko‘chasi, 1

Bank nomi: “TIF MILLIY BANK” AJ Bosh ofisi

MFO: 00450

H/r: 2021 2000 9054 3279 8001

STIR: 308 709 154

Eslatma: Universitet hisob raqamiga pul mablag‘lari to‘lanayotganda, to‘lov maqsadida talabgorning F.I.Sh. va oferta raqami ko‘rsatilishi lozim.

Payme ilovasi orqali to‘lov uchun havola:

<https://payme.uz/fallback/merchant/?id=640ac16e6a689d2b4b957d4a>

Oferta va taqdim etilgan to‘lov usullari haqida batafsil ma’lumot uchun Qabul bo‘limiga (+998) 71-202-41-11 (190/191) telefon orqali yoki “admission@newuu.uz” elektron pochta orqali yoki @newuucontact_bot telegram boti orqali murojaat yuborilishi mumkin.

